

## Unvon muborak!

“Qishloq xo‘jalik mashinalari “ kafedrasida o‘qituvchisi, texnika fanlari doktori Xudayarov Berdirasul Mirzayevichga oliy ta‘lim va ilmiy tadqiqot ishlaridagi ko‘p yillik mehnati, ilmiy faoliyati va jamoada samarali mehnatini hisobga olib O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan professor unvoni berildi. Shu munosabat bilan institutning ilmiy kengashida institut rektori professor O‘.P.Umurzakov tomonidan Xudayarov Berdirasul Mirzayevichga professorlik diplomi topshirildi va O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish uchun malakali mutaxassislarni tayyorlashdagi kelgusi ishlarida ulkan muvaffaqiyatlar va zafarlar tiladi.



**Institut matbuot xizmati Rahimboy Jumaniyozov**